



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 400 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Toshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	



Talabalarining darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish	196
Dusanov Shuxrat Abdiraakovich	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari	201
Qosimova Xolida Nabiyevna	
Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari	205
Xoliqazarov Azamat Begaliyevich	
Oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni fanlararo integratsiya asosida shakllantirish	209
Allanazarova Dilobar Baxromovna	
"Alpomish" dostonida obrazlar nutqidagi pedagogik qarashlar	213
Boboqulova Aziza Adizovna	
Researching the Biochemistry and Physical Chemistry of Oral Fluid in Kids Who Are Acting Strangely	217
Eraliyeva Zulfiya Makhmudovna, Buzrukhoda Javohir	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga qaratilgan kognitiv metodlar	222
I. Matrasulova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli didaktik vositalardan foydalanish metodikasi	225
Komilova Dilnozaxon Abdulhayevna, Xoliqova Mubinabonu Jamoliddin qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida onomastik leksikani lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitishning strategik-metodik asoslari	229
Mamatqulova Baxtixon Ravshanovna	
Raqamli matnlarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari	232
Mashrapova Sevara Xabibovna	
Extensive Pelvic Ureteral Abnormalities and Reconstructive Operations in Patients	237
Mukhsinov Sardor	
Pedagogikada metodlardan foydalanish	241
Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna	
Diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishini davolash usullari	245
Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna	
Talabalaridagi sanogen tafakkurning psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish masalasi	249
Tulyaganova Dilnoza Ulug'bek qizi	
Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish	253
Abdullayev Sherzodbek	
Context, Intention, and Meaning in English Language Teaching: Developing Pragmatic Awareness in Learners of English as a Foreign Language	256
Keldiyarova Shakhriyoz, Keldiyarova Mohlaroyim	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni steam yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimi	267
Yunusova Malika Miralimovna	
Культурные и исторические коды франции в автобиографической прозе марселя паньоля	270
Рахманкулова Дилафруз Азимовна	
Трансформация роли преподавателя в условиях цифровизации высшего образования	274
Рахматова Нигина Исломовна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy san'atning tutgan o'rni	278
Sultonova Marxabo	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi	283
Akramova Fotimabonu Kurbonovna	
Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari	288
Axmedov Muslimjon Usmonovich	
Boshlang'ich ta'limda musiqa ta'limini sun'iy intellekt va shaxsga yo'naltirilgan pedagogika asosida tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari	295
Djumabayeva Muqaddas	



“Suvning agregat holatlari va tabiatda aylanishi” mavzusini o‘rgatishda 4K ko‘nikmasini rivojlantirish	300
<i>Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich</i>	
Raqamli vositalar asosida mexatronika va robototexnika yo‘nalishi talabalarini o‘qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	307
<i>Ikromov Muhammad-Anasxon Xakimjon o‘g‘li</i>	
Najmiddin Kubroning ilmiy merosi	311
<i>Jahongir Jumanov</i>	
Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarda tejamkorlikni shakllantirishning o‘rni.....	314
<i>Jo‘rayev Alisher Tursinboyevich</i>	
Milliy va umuminsoniy qadriyat fenomenining pedagogik tadqiqotlarda o‘rganilishi.....	318
<i>Jovlijev Jo‘rabek Alisher o‘g‘li</i>	
Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarda emotsional buzilishlarning ijtimoiy-psixologik sabablari	322
<i>Manzitov Baxtiyor Tolibovich</i>	
Maktabgacha ta‘lim jarayonida o‘yin texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik asoslari va samaradorligi	329
<i>Nyutonova Xilola Lochinbekovna, Mayliyeva Nasiba Axmedovna</i>	
Ta‘lim menejmentida Predictive Analytics texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari	332
<i>Primqulova Aziza Mirzaahmad qizi</i>	
Yosh sportchilarda tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirish usullari	337
<i>Chariyev Ulug‘bek Abdujabbarovich, Radjabov Jaxongir Furkatovich</i>	
Z avlod psixologik xususiyatlariga mos zamonaviy tarbiya texnologiyalari	342
<i>Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</i>	
Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasida refleksiya mexanizmining o‘rni	346
<i>Raxmonova Mahfuzaxon Xasan qizi</i>	
Iqtisodiy o‘shishning mohiyati	350
<i>Sayfiddinova Sabina Muhiddinovna</i>	
Dasturlash ko‘nikmalarini baholashda generativ sun‘iy intellekt va gamifikatsiya integratsiyalashgan arxitektura modelini ishlab chiqish.....	353
<i>Sultonov Ravshonbek Otonazarovich</i>	
Ta‘lim klasteri sharoitida talabalarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning zaruriyati	356
<i>Sultanova Dilnura Abdurashidovna</i>	
Stereometriya darslarida o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini va tasvirlash savodxonligini 3D modellashtirish vositasida rivojlantirish	359
<i>Sultonova Shahnoza Yusuf qizi, Sultonova Dilrabo Yusuf qizi</i>	
Chayon zahrlining biologik xususiyatlari, toksikologik ta‘siri va biotexnologiyadagi istiqbolli qo‘llanilishi.....	365
<i>To‘xtamurodova Feruza</i>	
Sun‘iy intellekt va raqamli ta‘lim texnologiyalari integratsiyasi asosida oliy ta‘limda fizika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish.....	369
<i>Usubjonova Durdona Fazliddin qizi</i>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim va tarbiya maqsadlarini o‘yin mexanikasiga integratsiya qilishning interaktiv modulli texnologiyalarini takomillashtirish	373
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Особенности формирования совместной познавательной деятельности в образовательном процессе.....	378
<i>Абдрахманова А. С.</i>	
Влияние корпоративной культуры вуза на формирование профессиональных ценностей студенческой молодежи.....	383
<i>Бекбаев Рауф Рустамович</i>	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA TA'LIM VA TARBIYA MAQSADLARINI O'YIN MEXANIKASIGA INTEGRATSIYA QILISHNING INTERAKTIV MODULLI TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xolmatova Dilshoda Sherali qizi

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimining xalqaro andozalari hamda zamonaviy bolalar psixologiyasi va neyropedagogika qonuniyatlari asosida o'yin faoliyatini tizimli ta'lim vositasiga aylantirish masalalari yoritilgan. Maqolada o'yin faoliyatining fundamental tarkibiy elementlari, uni loyihalash bosqichlari hamda zamonaviy Alfa avlodi sensor-vizual ehtiyojlariga mos keluvchi to'rtta yirik metodik tizim: gamifikatsiya, muammoli o'yinlar, tadqiqotga asoslangan (Inquiry-based) o'yinlar va simulyatsion o'yinlarning ilmiy-metodik poydevori hamda amaliy qo'llanish algoritmlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, neyropedagogika, Alfa avlodi, gamifikatsiya, muammoli o'yinlar, inquiry-based learning, simulyatsion o'yinlar, refleksiya, soft skills.

Abstract: This article explores the transformation of play activities into a systematic educational tool based on international standards of preschool education, as well as the principles of modern child psychology and neuropedagogics. The paper analyzes the fundamental structural elements of play activity, the stages of its design, and the scientific-methodological foundations alongside practical application algorithms of four major methodological systems that align with the sensory-visual needs of the modern Alpha generation: gamification, problem-based games, inquiry-based games, and simulation games.

Key words: preschool education, neuropedagogics, Alpha generation, gamification, problem-based games, inquiry-based learning, simulation games, reflection, soft skills.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы трансформации игровой деятельности в системный образовательный инструмент на основе международных стандартов дошкольного образования, а также закономерностей современной детской психологии и нейропедагогике. В статье проанализированы фундаментальные структурные элементы игровой деятельности, этапы ее проектирования, а также научно-методические основы и алгоритмы практического применения четырех крупных методических систем, отвечающих сенсорно-визуальным потребностям современного поколения Альфа: геймификации, проблемно-ориентированных игр, исследовательских игр (Inquiry-based) и симуляционных игр.

Ключевые слова: дошкольное образование, нейропедагогика, поколение Альфа, геймификация, проблемные игры, исследовательское обучение, симуляционные игры, рефлексия, гибкие навыки (soft skills).

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimining xalqaro andozalari va zamonaviy bolalar psixologiyasi qonuniyatlariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolaning shaxs sifatida shakllanishi, dunyoni anglashi va ilk fundamental ko'nikmalarni egallashi faqatgina bir faoliyat - o'yin orqali kechadi. Maktabgacha yoshdagi bolalik davrida o'yin shunchaki bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish yoki bolani zeriktirmaslik uchun o'ylab topilgan ermak emas, balki tabiat tomonidan inson ontogeneziga singdirilgan yetakchi faoliyat turi, dunyoni tadqiq etish laboratoriyasidir. Shu sababli, zamonaviy maktabgacha ta'lim metodikasining eng markaziy, eng dolzarb vazifasi - o'yin faoliyatini tizimli va ilmiy-metodik asosda o'qitish metodiga aylantirish, ya'ni ta'lim va tarbiya maqsadlarini o'yinning ichki mexanikasiga mutlaqo sezilarsiz, tabiiy ravishda integratsiya qilish hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agar an'anaviy pedagogik yondashuvlarda o'yin mashg'ulotning bir qismi, uning zerikarli qismlarini jonlantirish uchun qo'llaniladigan "tanaffus" yoki "bezak" sifatida qaralgan bo'lsa, zamonaviy neyropedagogika va rivojlantiruvchi ta'lim metodologiyasida o'yin butun bir ta'limiy jarayonning arxitekturasi, uning konseptual asosi deb e'tirof etiladi. Metodik nuqtayi nazardan, o'yinni oddiy ko'ngilochar harakatlardan ajratib turuvchi va uni tizimli pedagogik vositaga aylantiruvchi bir qator fundamental tarkibiy elementlar mavjud. Tarbiyachi mashg'ulotni loyihalashtirishdan oldin o'yinning ushbu ichki tuzilishini mukammal anglashi shart.

O'yin metodining birinchi komponenti - o'yin maqsadi hisoblanadi. O'yin faoliyatini maqsadli tashkil etish zarurligi Jerome Bruner tomonidan ham asoslab berilgan bo'lib, olim o'yin orqali tashkil etilgan ta'lim bolaning mustaqil fikrlashi va bilimlarni faol o'zlashtirishiga xizmat qilishini qayd etadi.


Bu maqsad tarbiyachining ish rejasidagi quruq akademik yoki dasturiy maqsadlardan farq qiladi. Pedagogik vazifa (masalan, bolaga son tushunchasini o'rgatish yoki geometrik shakllarni farqlashni shakllantirish) o'yin ichida bolaning o'z ehtiyojiga, ya'ni o'yinning mazmuniy maqsadiga aylanishi kerak. Bola: "Men dars qilyapman, sonlarni o'rganyapman", deb emas, balki: "Men hozir yashiringan xazinani topish uchun 5 ta kalit yig'ishim kerak", deb o'ylashi lozim. Mana shu holatda metodik mahorat yuzaga chiqadi.

O'yinning ikkinchi elementi - o'yin qoidalaridir. Qoidalar o'yinning mantiqiy karkasi bo'lib, ular bolalarning harakatlarini tartibga soladi, ijtimoiy munosabatlarni boshqaradi va, eng muhimi, bolaning irodaviy sifatlarini, o'z-o'zini nazorat qilish (self-regulation) qobiliyatini rivojlantiradi. Qoidasiz o'yin - bu tartibsizlikdir, tartibsizlikda esa tizimli ta'lim amalga oshmaydi.

Uchinchi komponent - o'yin harakatlaridir. Bu bolaning o'yin jarayonida bevosita nima ish bilan mashg'ul bo'lishidir: qidirish, taqqoslash, yashirish, rollarni ijro etish, qurish-yasash yoki jumboqlarni yechish. O'yin harakatlari qanchalik faol, harakatli va qiziqarli bo'lsa, bolaning diqqati shunchalik uzoq vaqt mashg'ulotga jalb qilinadi.

To'rtinchi element - o'yin materialidir. Bunga didaktik o'yinchoqlar, rasmlar, tabiiy materiallar (toshlar, barglar, qum), vizual va sensor kartochkalar hamda o'yin muhitining barcha komponentlari kiradi. Materiallar bolaning yosh xususiyatiga mos, xavfsiz, estetik jihatdan chiroyli va, eng muhimi, ko'p funksiyali (polifunksional) bo'lishi lozim.

Nihoyat, beshinchi va eng ko'p e'tibordan chetda qoladigan metodik komponent - bu natija va uning ortidan keladigan refleksiya (tahlil) bosqichidir. Ko'pincha tarbiyachilar o'yin tugashi bilan bolalarga yulduzcha berib yoki shunchaki: "Rahmat, bolalar!", deb mashg'ulotni yakunlaydilar. Vaholanki, refleksiyasiz o'yin o'zining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi qiymatining yarmini yo'qotadi. Refleksiya bosqichida bola o'yin davomida nimalarni boshdan kechirganini, qanday qiyinchiliklarga duch kelganini va muammoni qanday yechganini o'zi ongli ravishda tahlil qilishi hamda so'zlab berishi kerak. Zamonaviy metodikada o'yin endilikda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan "tayyor shakl" yoki tasodifiy jarayon emas, balki pedagog tomonidan chuqur loyihalashtiriladigan va modellashtiriladigan murakkab pedagogik vosita sifatida qaraladi. Tarbiyachi har bir mashg'ulot oldidan o'yinni to'rtta asosiy konseptual bosqichda ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir (1-rasm).





Birinchi bosqich - maqsadni aniqlash bosqichi bo'lib, unda pedagog o'yin orqali aynan qanday bilim, ko'nikma yoki malakani shakllantirishini aniq belgilab oladi. Masalan, maqsad son tushunchasini shakllantirish bo'lishi mumkin yoki bolalarning ranglarni ajratish hamda ularni atrof-muhitdagi predmetlar bilan taqqoslash qobiliyatini o'stirish, yo bo'lmasa, bog'lanishli nutqni, lug'at boyligini rivojlantirish bo'lishi mumkin.

Ikkinchi bosqich - o'yin mexanikasini to'g'ri tanlashdir. Tarbiyachi guruhdagi bolalarning psixologik holati, kayfiyati va darsning xarakteriga qarab mos mexanikani belgilaydi. Bu o'yin raqobatli (kim tezroq yoki kim ko'proq topadi) shaklda bo'lishi mumkin, hamkorlikka asoslangan (jamoaga bo'lib umumiy muammoni yechish) ko'rinishda tashkil etilishi mumkin, syujetli-rolli yoki bolaning ichki intellektini uyg'otuvchi izlanishga, tadqiqotga asoslangan shaklda bo'lishi mumkin.

Uchinchi bosqich - qoidalarni metodik jihatdan to'g'ri ishlab chiqishdir. Bunda amaliyotchi pedagoglar uchun oltin qoidalar mavjud: qoidalar har doim maksimal darajada soddaga, qisqara va bolaning tili bilan tushuntiriladigan bo'lishi kerak; ular, albatta, bolaning yosh imkoniyatlariga va aqliy rivojlanish darajasiga mos kelishi shart; eng asosiysi - qoidalar bolaning ijodiy erkinligini, tashabbuskorligini butunlay bo'g'ib, uni mexanik robotga aylantirib qo'ymasligi, balki ma'lum bir xavfsiz va tarbiyaviy chegaralar ichida unga harakat erkinligini berishi kerak.

To'rtinchi bosqich - natijani va refleksiyaning baholash usulini belgilashdir. Bunda pedagog o'ziga savol berishi kerak: o'yin natijasida bola quruq ma'lumot yodladimi yoki hayotiy ko'nikma (soft skill) oldimi? Bola o'yin davomida o'z xatti-harakatlaridan, do'stlari bilan muloqotidan qanday xulosa chiqardi? Mana shu to'rtta bosqich ketma-ketlikda, tizimli amalga oshirilsa, ta'lim samaradorligi o'z-o'zidan maksimal darajaga ko'tariladi. Zamonaviy o'yin texnologiyalarini loyihalash masalalari Karl M. Kappning gamifikatsiyaga oid tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Olim ta'lim jarayonini o'yin mexanikalari asosida tashkil etish bolalarda motivatsiya, faol ishtirok va barqaror o'quv natijalarini ta'minlashini ilmiy asoslab bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kun ta'lim makonida dunyo pedagogikasi shiddat bilan o'zgarmoqda. Axborot texnologiyalari asrida tug'ilgan, vizual qabul qilish qobiliyati juda kuchli bo'lgan zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalarni (Alfa avlodini) an'anaviy didaktik o'yinlar yoki quruq ko'rsatma-namoyishlar bilan uzoq vaqt davomida faol ushlab turish imkonsiz bo'lib bormoqda. Shu sababli, zamonaviy maktabgacha ta'lim metodikasida o'yin metodlarining klassifikatsiyasi (tasnifi) tubdan kengaytirildi va boyitildi.

Bugungi kunda pedagogik amaliyotda eng yuqori samara berayotgan zamonaviy o'yin metodlari to'rtta yirik tizimga bo'linadi: gamifikatsiya asosidagi o'yinlar, muammoli o'yinlar, tadqiqotga asoslangan (Inquiry) o'yinlar va simulyatsion o'yinlar. Ushbu metodlarning har biri bolaning psixofiziologik rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi va ularning har birini qo'llashning o'ziga xos ilmiy-metodik qonuniyatlari mavjud.

Gamifikatsiya asosidagi o'yinlar (Gamification)

Gamifikatsiya asosidagi o'yinlar - bu o'quv mashg'ulotini to'liq ertak yoki o'yin syujetiga aylantirmasdan, uning ichiga o'yin elementlari va mexanizmlarini (ballar, darajalar, vizual mukofotlar, quvonchli belgilar, mini-missiyalar va peshqadamlar jadvali) tizimli ravishda kiritish orqali bolalarning ichki va tashqi motivatsiyasini, qiziqishini maksimal darajada oshirishga qaratilgan zamonaviy metodik yondashuvdir. Ushbu metodning eng bosh mohiyati shundaki, dars yoki har qanday ta'limiy faoliyat bolaga sezilmaydigan darajada o'yin po'stlog'iga, jozibali qobiqqa "o'raladi". Bola o'zini erkin o'yin ichida his qiladi, o'yin zavqini tuyadi, biroq orqa fonda (fon rejasida) pedagog tomonidan aniq rejalashtirilgan maqsadli bilimlar, matematik operatsiyalar yoki nutqiy ko'nikmalar mukammal egallanadi.

Gamifikatsiyaning maktabgacha ta'limdagi metodik asosi bolaning yutuqqa erishish, e'tirof etilish va o'zining muvaffaqiyatini vizual tarzda ko'rishga bo'lgan fundamental psixologik ehtiyojiga tayanadi. Bu metodda bolaga murakkab, uzun syujetlarni tushuntirish shart emas. Uning ishlash mexanizmi oddiy va tezkor rag'bat tizimi, ya'ni bolaning har bir ijobiy harakati uchun darhol vizual natija berish va unda muvaffaqiyat, g'alaba hissini (dopamin gormoni ta'sirida yuzaga keladigan ijobiy emotsiyaning) uyg'otish orqali kechadi. Shu orqali bolada darsga nisbatan majburiyat emas, balki: "Yana bir bor sinab ko'raman!", "Keyingi bosqichda nima bo'larkan?" degan ichki ishtiyok va faollik paydo bo'ladi. Gamifikatsiya metodining afzalliklari cheksizdir.

U mashg'ulotning zerikarli, bir xil bo'lishining oldini oladi, bolalarda fanga, intellektual mehnatga nisbatan qiziqishni uyg'otadi, natijalarni vizuallashtiradi va har bir bolaning individual rivojlanish sur'atiga moslashish (differensial yondashuv) imkonini beradi. Lekin amaliyotda ko'p uchraydigan eng katta xato - gamifikatsiyaning yuzaki tushunishidir. Agar tarbiyachi darsning mazmunini, metodikasini o'zgartirmasdan, shunchaki har bir to'g'ri javob uchun bolaning peshonasiga yulduzcha yopishtirish yoki quruq ball berish bilan cheklansa, bu

haqiqiy gamifikatsiya hisoblanmaydi. Bu shunchaki tashqi mexanik rag'batlantirishdir va u tez fursatda bolani zeriktiradi, bolada faqatgina "O'yinchoq yoki yulduzcha olish uchun o'qiyman" degan noto'g'ri pragmatik motivatsiyani shakllantirib qo'yadi. Haqiqiy, chuqur gamifikatsiya – bu bolaning ichki dunyosini, uning o'rganishga, kashf qilishga bo'lgan tug'ma ehtiyojini uyg'otish, jarayonning o'zini jozibali qilish va bolada o'z kuchi bilan muvaffaqiyatga erishish lazzatini tuydirishdir. To'g'ri tashkil etilgan gamifikatsiya o'yinlari maktabgacha yoshdagi bolalarda kelajak maktab ta'limi uchun eng kerakli bo'lgan uchta hayotiy sifatni: yuqori motivatsiya, ijtimoiy faollik va qiyinchiliklardan qo'rqmaslik (o'ziga ishonch) sifatlarini shakllantiradi.

Muammoli o'yinlar (Problem-based games)

Muammoli o'yinlar - bu bolalarga hayotiy, qiziqarli va ularning yoshiga mos keladigan ma'lum bir muammoli vaziyat, jumboq yoki ziddiyatli holat berilib, ular o'yin jarayonida ushbu muammoning yechimini mustaqil ravishda yoki kichik jamoalarda izlab topishga yo'naltiriladigan chuqur metodik yondashuvdir. Zamonaviy ta'lim falsafasida ushbu metod oltin qiymatga ega, chunki u bolani tayyor bilimlarni mexanik ravishda yodlab oluvchi passiv tinglovchidan o'z fikriga ega bo'lgan, fikrlovchi, tahlil qiluvchi va muammolarni dadil hal eta oladigan faol, ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi. Muammoli o'yinlarning metodik mohiyati bolani "tayyor javoblar va qoliqlar dunyosi" dan uzoqlashtirib, uni mustaqil mantiqiy fikrlashga, tajriba o'tkazishga va izlanishga majbur qilishdan iboratdir.

An'anaviy darsda tarbiyachi: "Bolalar, qushlar qishda och qoladi, ularga don berish kerak, mana bu qushlar donlagichi", deb tayyor ma'lumot beradi. Muammoli o'yin metodida esa jarayon mutlaqo teskari quriladi: guruh xonasiga bir dona "och qolgan qushcha" (qo'g'irchoq) keladi va u bolalarga qarab: "Tashqarida qor yog'di, hamma yoq muzladi, men ovqat topa olmayapman, menga yordam beringlar, qanday qilib ovqatlamam bo'ladi?" deb muammo qo'yadi. Mana shu daqiqadan boshlab bolaning miyasida intensiv kognitiv jarayon (fikrlash portlashi) boshlanadi. Bola muammoni his qiladi, uni o'zining ichki dardi sifatida qabul qiladi, turli variantlarni o'ylaydi, sinab ko'radi va eng maqbul, hayotiy yechimni o'zi kashf etadi.

Tadqiqotga asoslangan o'yinlar (Inquiry games)

Tadqiqotga asoslangan o'yinlar (xalqaro metodik tilda Inquiry-based learning games) – bu bolaning o'ziga xos bo'lgan tabiiy qiziquvchanligi, kuzatuvchanligi, tinimsiz savol berish ehtiyojiga tayanib, atrof-muhitdagi tabiiy hodisalar va predmetlarning yashirin xususiyatlarini elementar tajribalar, laboratoriya o'yinlari va mustaqil kashfiyotlar orqali o'rganishga qaratilgan eng yuqori darajali metodik yondashuvdir. Agar muammoli o'yinlarda aniq bir salbiy vaziyatdan chiqish yo'li qidirilsa, tadqiqotga asoslangan o'yinlarda dunyoning tuzilishini, tabiat qonuniyatlarini aniqlashga bo'lgan sof ilmiy-ijodiy intilish ustuvor bo'ladi. Ushbu metod maktabgacha ta'lim muassasalarida bolani tayyor bilimlarni shunchaki qabul qiluvchi emas, balki faol, mustaqil kashfiyotchi, kichik olim sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvda ham asosiy e'tibor quruq dars natijasiga emas, balki o'rganish va tadqiq etish jarayonining o'ziga qaratiladi.

Inquiry o'yinlarining metodik markazida bolaning har kuni o'nlab marta beradigan "Nega?", "Qanday?", "Qayerdan?" degan fundamental savollari turadi. Metodning o'ziga xosligi shundaki, tarbiyachi bu savollarga hech qachon tayyor, ensiklopedik javobni bermaydi. Masalan, bola: "Opa, nega muz qishda qattiq edi, hozir esa suv bo'lib qoldi?" deb so'rsa, tarbiyachi: "Chunki xona issiq, issiqda muz eriydi", deb aytmaydi. Pedagog bolani tadqiqot o'yiniga taklif qiladi: "Ajoyib savol berding! Kel, buni o'zimiz tekshirib ko'ramiz. Guruhimizda qaysi joy eng issiq va qaysi joy eng sovuq? Kel, muz bo'laklarini o'sha joylarga qo'yib, soat qumi yordamida qaysi biri tezroq erishini kuzatamiz!"

Mana shu daqiqada tarbiyachi o'zining an'anaviy "bilim beruvchi, o'rgatuvchi" rolidan chiqib, bolaning tadqiqotini to'g'ri yo'naltiruvchi, unga kerakli sharoit va jihozlarni yetkazib beruvchi zamonaviy fasilitator va ilmiy maslahatchi roliga o'tadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Simulyatsion o'yinlar (Simulation games)

Simulyatsion o'yinlar - bu maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy hayotga moslashishi, jamiyat qonun-qoidalarini o'rganishi va kelajak hayotda asqatadigan eng muhim amaliy ko'nikmalarni egallashi uchun real hayotiy vaziyatlarni, professional sohalarni va sotsial munosabatlarni bog'cha xonasida, xavfsiz va maxsus modellashtirilgan sun'iy muhitda qayta yaratish (simulyatsiya qilish) orqali tashkil etiladigan eng murakkab va serqirra o'yin metodidir. Agar oddiy o'yinlar bolada faqatgina umumiy qiziqish va sensor rivojlanishni ta'minlasa, simulyatsion o'yinlar bolani to'g'ridan to'g'ri real jamiyat hayotiga, uning murakkab ijtimoiy rollar tizimiga mukammal tayyorlaydi. Simulyatsion o'yinlarning metodik mohiyati bolada: "Men xuddi kattalardek harakat qilyapman", "Men jamiyatning muhim a'zosiman", degan ichki mas'uliyat va jiddiylik hissini uyg'otishdan iboratdir.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, zamonaviy maktabgacha ta'lim arxitekturasida o'yin faoliyati shunchaki didaktik vosita yoki ko'ngilochar element emas, balki ta'lim va tarbiya maqsadlarini tizimli amalga oshiruvchi fundamental pedagogik platformadir. Tadqiqot davomida tahlil qilingan interaktiv modulli texnologiyalar - gamifikatsiya, muammoli, tadqiqotga asoslangan (inquiry-based) va simulyatsion o'yinlar bugungi Alfa avlodi bolalarining sensor-vizual hamda kognitiv ehtiyojlariga to'liq javob bera olishini ko'rsatdi.

O'yin mexanikasini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samaradorligi bevosita pedagogik jarayonning to'g'ri loyihalashtirilishi va texnologik zanjirning (motivatsiya, yo'naltirish, amaliy harakat va refleksiya bosqichlarining) uzviyligiga bog'liq. Ayniqsa, neyropedagogik nuqtayi nazardan eng oliy qism hisoblangan refleksiya bosqichi bolaning o'yin davomida orttirgan empirik tajribasini ongli xulosalarga aylantirish va miyada mustahkam neyron aloqalarini hosil qilish uchun bosh omil bo'lib xizmat qiladi.

Amaliyotchi tarbiyachilar tomonidan ushbu interaktiv modulli yondashuvlarning tizimli va moslashuvchan (differensial) tarzda qo'llanilishi, an'anaviy ta'limdagi qoliplardan voz kechib, bolaga erkin, xavfsiz va ijodiy muhit yaratib berilishi maktabgacha yoshdagi bolalarda XXI asr uchun eng zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni (soft skills - tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va jamoada ishlash) shakllantirish kafolatidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim mazmunini o'yin mexanikasi orqali takomillashtirish kelajakda intellektual salohiyati yuqori va ijtimoiy moslashuvchan shaxsni tarbiyalashning eng samarali strategik yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 2020-yil 22-dekabrda 802-son1 qarori.
3. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Xurvaliyeva T.L. Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
5. Heckman J.J., Kautz T. Hard Evidence on Soft Skills. – Labour Economics, 2012.
6. Boltaboyev M., Abdullayeva S. Maktabgacha ta'limda o'yin texnologiyalari. – Toshkent: Sharq, 2021.
7. Zunnunov A. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2017.
8. OECD. Skills for Social Progress: The Power of Social and Emotional Skills. – Paris: OECD Publishing, 2015.
9. Pellegrini A.D. The Role of Play in Human Development. – Oxford University Press, 2009.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.